

MARG‘UBA MIRZAAHMEDOVA NASHRINING “MUKAMMAL ASARLAR TO‘PLAMI”DAGI “NASOYIM UL-MUHABBAT” MATNI BILAN QIYOSIY TAHLILI

Qudratova Kamola Hikmat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
E.mail: hikmatovnakamola@gmail.com
+998 91 406 12 24
https://doi.org/10.5281/zenodo.22816497

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarining 20 jildlik “Mukammal asarlar to’plami” hamda 15 jildlik “Asarlar” to’plamlariga kiritilgan nashrlari o’zaro qiyosiy tahlili.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, mashoyix, zikr, odob, avliyo, tasavvuf, matn.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ текстологических особенностей изданий произведения Алишера Навои «Насойим ул-мухаббат», представленных в 20-томном собрании сочинений «Мукаммал асарлар тўплами» («Полное собрание сочинений») и 15-томном собрании сочинений «Асарлар» («Сочинения»). В ходе исследования сопоставляются тексты произведения, включённые в указанные издания, а также выявляются особенности их публикации и текстуальной передачи.

Ключевые слова: Алишер Навои, машойих, зикр, адаб, авлия, суфизм, текст.

Annotation: The article presents a comparative textual analysis of the editions of Alisher Navoi’s work Nasoyim ul-Muhabbat included in the 20-volume Mukammal Asarlar To‘plami (Complete Works) and the 15-volume Asarlar (Works). The study compares the texts of the work presented in these editions and identifies the specific features of their publication and textual transmission.

Keywords: Alisher Navoi, mashoyikh, dhikr, adab, awliya, Sufism, text.

Kirish. Kommunistik mafkura hukmron bo‘lgan uzoq yillar davomida ilohiyot va tasavvuf g‘oyalari xalqimiz hayotidan sun’iy ravishda uzoqlashtirilgan. “Din afyundir”, din zararlidir iborasi xalqimizning turmush tarziga chuqur singdirilgan. Dinsizlik (oteizm) maxsus fan sifatida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilgan. Ana shu xatti-harakatlarning barchasi mumtoz adabiyotga, mumtoz adabiyot namunalarining nashrlariga ham jiddiy zarar yetkazgan. Mumtoz asarlar tarkibidagi so‘z va jumlalargina emas, yaxlit fasl va boblar nashrdan soqit qilingan. Holbuki, o‘sha jumlalar, fasl va boblar inson va hayot haqidagi qamrovli masalalar mag‘zini chaqishga yo‘l ochadigan, o‘quvchini har tomonlama komil inson bo‘lib yetishishiga kuchli ta’sir etadigan, sezilarli manfaat bera oladigan qimmatli manbalar bo‘lgan. Mumtoz adabiyot namunalarida, xususan, turkiy xalqlar adabiyotining ulug‘ namoyondasi Hazrat Alisher Navoiy asarlarida ortiqcha, maqsadsiz, muallaq turgan satr tugul, so‘z ham bo‘lmaydi.

Asosiy qism. “Nasoyim ul-muhabbat”ning “Bu toifaning a’molu af’ol va muomilotu riyozotidin ba’zini zikr qilmoq” sarlavhasi ostidagi qismida mashoyixlarning “avval ishlari tavba”dan keyin “luqma hilmiyati”, ya’ni halol luqma uchun bir kasb bilan shug‘ullanish ekanligini aytgan Alisher Navoiy bir necha avliyoullohlarning shug‘ullangan kasb-korlari bilan o‘quvchini tanishtiradi. “Nasoyim ul-

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

muhabbat”ning muhokama yuritilayotgan qismidan Shayx Abu Said Xarroz etikdo‘zlik, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchilik, Shayx Abu Hafz Haddod temirchilik, Shayx Abu Bakr Xabboz novvoylik, Shayx Abulabbos Omiliy qassoblik, Shayx Ibrohim Ojuriy g‘isht quyuvchilik, Shayx Abulhasan Muzayyin va Shayx Bannon hammollik, Shayx Abulhasan najjorlik, Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband kimxoga naqsh bosish kasbi bilan shug‘ullanganliklari ma’lum bo‘ladi. “Nasoyim ul-muhabbat”da 770 shayx nomi zikr qilingan va bu mashoyixlarning har biriga alohida maqola bag‘ishlangan. Shunday bo‘lgach, Alisher Navoiy unga yaqin avliyoullohlarning kasbi kori haqida ma’lumot berish bilan cheklanadilar va ayni masala talqiniga bag‘ishlangan satrlarini “Ul jumladin” ifodasi bilan boshlaydilar. “Nasoyim ul-muhabbat”ning 1968-yilgi nashrida hech qanday asossiz ravishda zikr qilingan ifoda matndan tushurib qoldirilgan.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning munozara yuritilayotgan qismida shariat rioyati, ya’ni islomning besh ruknidan biri zakot haqida mulohaza yuritilar ekan, Shayx Abubakr Shibliyning bir faqih (islom huquqshunosi) bilan mubohasasi berilgan. Tazkiradan shu haqda o‘qiymiz: “Shayx Abubakr Shibliy q. s. din bir faqih so‘rubdurki, zakot adosi ne nav’dur? Shayx debdurlarki, sanga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Yo manga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Aytibdurlarki, manga bo‘lur zakot qaysidur va sanga bo‘lur zakot qaysidur?”[1](17) “Nasoyim ul-muhabbat” dan ko‘chirilgan iqtibosning ajratib ko‘rsatilgan qismi 1968-yilgi nashrdan soqit qilingan. Natijada Alisher Navoiy ifodasidagi matn jiddiy zarar ko‘rgan. Uslubiy xato yuzaga kelib, jumlalar aro bog‘liqlik uzilib qolgan. Fikr, mubohasi yo‘nalishi muallaq holga tushib qolgan. Shayx Abubakr Shibliy q. s. shaxsiga xos Abubakr Siddiq mahzabiga kugli e’tiqod, behad bag‘rikenglik va saxiylik, shukrona, ulug‘ shayxning buyuk e’tiqodi ifodasi ma’lum darajada soyada solgan. Chunki shayx amal qilgan zakot talabi bilan birga musulmonlar amal qiladigan zakot adosida behad katta farq bor. Bu Alisher Navoiyning Shayx Abubakr Shibliy tilidan aytgan quyidagi so‘zlarida yorqin ifodasini topgan: “Shayx debdurlarki, sanga bo‘lur zakot uldurkim, har ikki yuz diramdin besh diram Tengri yo‘lida bergaysan. Manga bo‘lur zakot budurkim, har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram Tengri taolo yo‘lida bergaymen.” (17).

Keltirilgan iqtibosning dastlabki so‘zi nashrdan tushirib qoldirilgan. Holbuki, “Shayx” so‘zi matn uchun juda zarur. O‘tmishda yashagan donishmandlar, mashoyixlar, shoir va olimlarning nomi tilga olinganda ularning nomi yoki taxallusi oldidan “Shayx” so‘zini ilova qilish odat tusiga kirgan. Masalan, Shayx ur-rais ibn Sino, Shayx Muslihiddin Sa’diy,Shayx Ahmad Suhayliy, Shayx Orif Ozariy, Shayx Kamoli Turbatiy va boshqalar. Shuni alohida ta’kidlash zarurki bunday holatda “shayx” so‘zi – riyokor, dinni targ‘ib qiluvchi vas hu yo‘l bilan tirikchilik o‘tkazuvchi dindor yoki diniy lavozimdagi kishi ma’nosida ishlatilmaydi. Chunki “shayx” so‘zining ma’nofi faqat yuqoridagilar bilan cheklanmaydi, balki lug‘at uning ma’nosi ancha teran, ancha keng ekanligiga kafillik beradi. Jumladan “Tojik tilining izohli lug‘ati” va “Navoiy asarlari lug‘ati”da “shayx” so‘zining ikki ma’noda ishlatilishi qayd qilingan. “Navoiy asarlari lug‘ati”da quyidagilar qayd qilingan: “Shayx arabcha so‘z bo‘lib, qari, keksa, so‘fiylar boshlig‘i, eshon kabi ma’nolarni anglatadi. Ayrim donishmandlar “shayx” so‘zining birinchi ma’nosiga (qari, keksa) olim, zukko, faylasuf kabi sifatlarni ham qo‘shadilar. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida “shayx” qo‘shimchasini olgan shoirlar haqida xarakteristika beriladi. Mazkur tazkirada shunday satrlar bor: “Shayx Kamoli Turbatiy – ko‘p diqqatlik, tablik kishi erdi, Xo‘ja Hofiz g‘azallaridin ko‘p

[1] Alisher Navoiy. Asarlar. O‘n besh tomlik. O’n beshinchi tom. – Toshkent: badiiy adabiyot, 1968. – B. 17. Bundan keying iqtiboslar ham asarning shu nashridan olinadi va sahifasi qavsda ko’rsatiladi.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

muxammas qilibdur. Xuroronning mutaayyin (tayinli, taniqli), rangi zurafosidin erdi".[2] Shuningdek, ustod Sadriddin Ayniy asarlarida ham shayx so'zi ijobiy ma'noda qo'llangan. Ma'lumki, ustod sharqning bir qator yirik siymolari haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Jumladan, uning e'tiborini Sa'diy taqdiri va ijodiyoti jalb etadi va u haqda ilmiy tadqiqotni yaratadi. Ustod Sadriddin Ayniy Sa'diy faoliyatining juda ko'p tomonlari xususida baxs yurutishi bilan birga shoir taxallusiga qo'shilib keladigan "shayx" so'zini tavsiflab bunday yozadi: "Az "shayx" laqab yoftani Sa'diy xonandagon gumon nabarand, ki u "piri muridir" budaast. Ne in tavr nest. Asli ma'nyi shayx – kihansol, muqobili chavon buda, dar qadim va ma'noi olim va donishmand ham kor farmuda meshud. Dar incho da ma'noi duyum ast. Ba hamin ma'ny Abdualy Sinoro ham Shayxurais nomidaand".[3] Mazmuni: Sa'diy taxallusiga "shayx" laqabining qo'shilishidan o'quvchilar u (Sa'diy) o'ziga muridlar ovlovchizohid ekan degan taxminga bormasinlar. Yo'q, bu also unday emas. Aslida "shayx" so'zi keksa, yoshlikning aksi bo'lib, ilgari olim va donishmand ma'nolarida ham ishlatilar edi. Bu yerda ana shu ikkinchi ma'nodadir. Shu boisdan Abu Ali ibn Sinoning nomiga Shayxurraisni qo'shib ishlatganlar. Shu aqidadan kelib chiqib, Sadriddin Ayniy O'rta Osiyoning ensiklopedist olimi Abu Ali ibn Sino haqida yaratgan tadqiqotiga "shayxurrais Abu Ali ibn Sino" deb sarlavha qo'ygan edi. Bu o'rinda "shayxurrais" so'zi "olimlar olimi, olimlar ssarkari, yirik donishmand, qomusiy bilimlar sohibi" kabi ma'nolarda talqin etilgan.[4] Olimlar, shoirlar, yozuvchilar nomi yoki taxallusidan oldin "shayx" so'zi kelganda, uni yuqorida ta'kidlangan ma'nolarda qabul qilish, tushunishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

"Nasoyim ul-muhabbat"ning Shayx Uvays Qaraniyga bag'ishlangan dastlabki maqolasidan o'qiymiz: "Birovning vasfikim, oning vassoffi Xojai koinot bo'lg'ay va nafasi nafasi rahmon bo'lg'ay, vasf qilmoq bag'oyat beodobliq bo'lg'ay" (23). Alisher Navoiy Payg'ambar (s.a.v) ning Uvays Qaraniy haqida aytgan "Men Xudoning nafasini Yaman tomonida tuymoqdaman" kabi hadislarini nazarda tutib, Uvaysning vasf qiluvchisi ikki jahon sarvarining o'zlari bo'lgach, yana buning ustiga Uvaysning nafasi nafasi rahmon bo'lganidan keyin uni vasf qilishdan boshqalar ojiz ekanligini ta'kidlash maqsadida yuqoridagi jumlani bitganlar. Matnda yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qiluvchi "vasf" so'zi 1968-yilgi nashrda tushurib qoldirilgan.

Tasavvufshunos olimlarimizning tadqiqotlaridan talqin qilinishicha, tavhid- birlashish insoniy haqiqatning to'la yuzaga chiqishi, yashirin xazina eshigining ochilishidir. Insoniy haqiqatni kashf etish orqali ilohiy haqiqatga erishiladi, shuning uchun haqiqat – bu Yorni ko'rishdir. Tasavvufga xos bunday ruhoniy holatlar dastlab so'zda ifodalanmagan. Ta'riqat ahlining o'zigagina tushunarli bo'lgan ramzlar, imo-ishoralar orqali aks ettirilgan. "Nasoyim ul-muhabbat" ning 9-fiqrasida zikr qilinishicha, ishoratni iboratga keltirgan, bu tariyqdan birinchi bo'lib so'z aytgan Zunnun Misriydir. Tasavvuf ilmiga tartib berib, kitob bitgan Junayd Bag'dodiydir. Uni minbar ustida aytib, oshkora qilgan esa Shibliydir. "Nasoyim ul-muhabbat"dan o'qiymiz: "Junayd so'zidurkim, biz bu asrorni yoshurun uylarda va sardobalarda mahramlarg'a aytur erdik. Shibliy minbar ustiga aytib, elga oshkor qildi" (29). Mazkur iqtibosda ham yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qiluvchi so'z – "elga" nashrdan soqit qilingan.

---

[2] Ahmed Ayni Konuk. Fususu'l-Hikam Tercume Ve Serhi Ii. Hazirlayanlar Dr. Mustafa Tahrali, Dr. Selcuk Eragdin. Istanbul, 1989. – 422 S.

[3] Ahmed Ayni Konuk. Fususu'l-Hikam Tercume Ve Serhi Iii. Hazirlayanlar Dr. Mustafa Tahrali, Dr. Selcuk Eragdin. Istanbul, 1990. – 450 S

[4] Ahmed Ayni Konuk. Fususu'l-Hikam Tercume Ve Serhi Iv. Hazirlayanlar Dr. Mustafa Tahrali, Dr. Selcuk Eragdin. Istanbul, 1992. – 448 S.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Zunnun Misriy bir kun sayr qilib yurganida bir darvesh yigit bilan uchrashib qoladi. Ularning orasida shunday suhbat bo‘lib o‘tadi: “Dedim: qaydinsan, ey g‘arib? Dedi: G‘aribmu bo‘lur ulki, oning bila muvonasati bo‘lg‘ay? Bu so‘zdin qichqirib, behush yiqildim. Hushumg‘a kelgandin so‘ngra dedikim, senga ne bo‘ldi? Dedimki, doru dardg‘a muvofiq tushti” (29). Diologik nutq uchun g‘oyatda zarur bo‘lgan “dedimki” matndan tushurib qoldirilgan.

“Nasoyim ul-muhabbat” ning 9-fiqrasida berilgan tasavvuf maslagining mohiyati bilan aloqador quyidagi jumla 1968-yilgi nashrdan to‘liq tushurib qoldirilgan: “Zunnun debdurkim, “Allohu taolo bandasining nafsini unga xor qilib ko‘rsatishi, uni ulug‘ qiladigan har qanday narsadan ko‘ra azizroq va muhimroqdir”. Va ham ul debdurkim, “maxfiyroq va qattiqroq parda – nafsni ko‘rish va unga tadbir qilish, ya’ni jilovlashdir”(29). Zunnun Misriy uch ilm keltirganligi haqidagi naql Shayx Abdulla Ansoriy tomonidan quyidagicha tushuntirilgan: “ … avval tavba ilmi erdikim, oni xosu om qabul qildilar. Ikkinchi, tavakkul va muomalat va muhabbat ilmi edikim, xos qabul qildilar va om yo‘q. Uchunchi, haqiqat ilmidurkim elning ilmu aqli toqatidin tashqari erdi. Xaloyiq anglamadilar va ani inkorg‘a qo‘ptilar”(30). Ko‘chirilgan iqtibosda uch ilmdan birini ifodalovchi “muhabbat” matndan tushurib qoldirilgan. Ko‘chirilgan iqtibosdan yuqorida berilgan jumlada Shayx Zunnun Misriyning ruhiyati manzalarini aks ettiruvchi: “qochoq, quvg‘in va yolg‘iz bo‘lib qoldim” ifodasi mutlaqo nashrdan soqit qilingan. “Nasoyim ul-muhabbat” 79-firqa Sayid ut-toifa Junayd Bag‘dodiyga bag‘ishlangan asarning 1968-yilgi nashridan o‘qiymiz: “Bas, tong erta majlis qo‘ydum va so‘z og‘oz qildim. Atrofg‘a xabar muntashir bo‘ldikim, Junayd so‘z aytadur”(61). Ko‘chirilgan iqtibosda atrofga nima muntashir (yoyilganligi) bo‘lgani ma’lum emas. Mukammal asarlar to‘plami”ning 17-jildi bilan qiyoslaganda “atrofa” kalimasidan keyingi “xabar”so‘zining matndan tushurib qoldirilganligi ma’lum bo‘ladi. So‘fiylar o‘zlarini Payg‘ambarlarning merosxo‘ri deb bilar ekan va botiniy hol kechinmalari ichida bo‘lish, Iloh asroriga oshnolikka yetish uchun intilib, aqliy bilishdan ko‘ra irfonih-vajdiy idrokni ustun qo‘yar ekanlar, tabiiy ravishda kashf-u karomat hodisasi kelib chiqadi. Ruhiy kamolotga yetgan ulug‘ insonlar albatta oddiy xalqdan ajralib turganlar, ularning zehn-u zakovati, aql-u shuuri, fazl-u farosati juda baland bo‘lgan. Ular ruh qo‘mondonlari sifatida atrofdagilarga behad kuchli ta’sir o‘tkazish qudratiga, najib xislatlarga ega bo‘lganlar.

Bu xislatlar ezgulik, ezgu axloq sari yo‘naltirilgan bo‘lib, kishilar orasida ilohiy fayz-u barokatning kengroq yoyilishi ta’minlangan, islomiy haqiqatlar, e’tiqod ruknlarini mustahkamlagan. Xuddi shunday talqin “Nasoyim ul-muhabbat”ning 79-fiqrasida ham nazarga tashlanadi: “Ul yigit tarso emish. Filhol islom qabul qildi. Imom Yofi’i debdur: bu ishta el Junayndg‘a bir karomat isbot qilsalar, men ikki karomat sobit qilurman” (61). Tasavvufdagi tavajjuh mohiyatini anglashda Junayd Bag‘dodiy q.s. tomonidan aytilgan quyidagi so‘zlar katta ilmiy qimmat kasb etadi: “Himmatingni Allohu azza va jalla tomonga qarat. Zinhor Allohu azza va jallani mushohada qiladigan basirat ko‘zingni undan boshqasiga qaratmaginki, Allohning nazaridan qolasan” (61). Tazkiraning 79-fiqrasidan olingan har ikkala iqtibos ham “Nasoyim ul-muhabbat”ning 1968-yilgi nashrida yo‘q.

Tasavvufda tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga yetishish yo‘liga g‘ov bo‘ladigan jamiki narsalardan qaytishga qasamyod etadi, butun intilishini, tavajjuhini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan mutlaqo voz kechadi. Yomon axloqdan go‘zal axloqqa qaytadi. “Nasoyim ul-muhabbat”ning 88-fiqrasida Abu Usmon Mag‘ribiy hikoya qiladiki darvesh bo‘lishimga sabab ul ediki, bir itim bor edi, Jazoirda ov ovlab yurar edim. Bir yog‘och kosam bore di, sut olib ichardim. Bir kuni odatimga ko‘ra, kosadan sut ichay deb tursam, “ul it ko‘p qichqirib iztirob qildi”. Kosani yerga qo‘ydim. Yana bir muddatdan so‘ng sut ichmoqchi bo‘lib, kosani qo‘limga oldim. It battar hurib, menga hamla qilmoqchi

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

bo‘ldi. Yana ichmay yerga qo‘ydim. Uchinchi marta qo‘limni kosaga uzatganimda ul it yana qattiqroq akillay boshladi va kosani yerga qo‘yganimda it borib, sutni ichdi vas hu zahoti shishib o‘ldi. Ma’lum bo‘ldiki, ilon sutdan ichib, zahrin ancha to‘kkan va it meni bundan ogohlantirgan ekan. “Itdan ul vafo ko‘rgachki, o‘zin menga fido qildi, qilodurg‘onlardan tavba qilib, bu tarini ixtiyor qildim”, – deydi Abu Usmon Mag‘ribiyga bag‘ishlangan fiqra Navoiy asarlarining 15-jildida ham berilgan. U mashoyixdan Abu Ali Kotib va Habib Mag‘ribiy va Abu Amr Zajjoz bilan suhbat tutgan, Abu Ya’qub Nahrjuriyni ko‘rgan valiy sifatida talqin qilinadi. 1968-yilgi nashrda Abu Amr Zajjoz – Abu Amr Zajjoj; Abu Usmon Hiriy – Abu Usmon Hariy (“Abu Usmon Hariy bila Abu Usmon Nasibiyning yonidadir”) tarzida noto‘g‘ri yozilgan. (80). Shuningdek, Shayx Usmon tilidan zikr qilingan “Osiy (gunohkor) mudda’iy (da’vogar) dan yaxshi, chunki osiy doimo tavba yo‘lini axtaradi, mudda’iy esa doimo da’volarning xayolida yanglishib yuradi”, – hikmati nashrdan tushurib qoldirilgan.

Shayx Abdulloh Ankokiyga bag‘ishlangan 95-maqolada Shayx Abu Ali Daqqoq tilidan zikr qilingan “Rasmiy ma’rifat yozgi yomg‘irga o‘xshaydi: n’a bemorga shifo beradi va na chanqoqni qondiradi”, “Faqrning manfaatlirog‘i u bilan ziynatlanganing va u bilan rozi bo‘lganing”, – hikmatlari ham 1968-yilgi nashrda yo‘q (81). Abu Abdulloh Antokiy faqr tariyqi nazariyasiga doir muhim fikrlarni yozib qoldirgan: “Faqrning nofe’rog‘i uldurkim, sen oning bila mutajammil bo‘lg‘aysen va onga rozi, ya’ni xalqning kamoli asbobning isbotidadur va faqr jamoli asbobi nafyi va musabbib isbotida va anga ruju’da va rizo aning ahkomig‘a” (68). Ko‘chirilgan iqtibos tarkibidagi “mutajammil” kalimasi 1968-yilgi nashrda “mutahammil”, “kamoli” – “jamoli”, “asbobi nafyi” – “asbobi taayyun”, “faqr sababi – naqddur” – “faqr sababi faqdedur” tarzida noto‘g‘i yozilgan (81). “Kamoli so‘zining “jamoli” tarzida yozilishi bilan takror yuz bergan. Ilmiy nasrda muhim badiiyat namunasi bo‘lgan saj’i mutavoziy ko‘rinmay qolgan. “Saj’da ham vaznlilik asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Agar gaplar oxiridagi so‘zlar hammasi bo‘lsalar, u holda sa’j emas balki takror yuzaga keladi, garchi aksariyat hollarda sa’j jumla oxirida uchrasa-da biroq bu kategorial holat emas. Chunki xalq og‘zaki badiiy ijodi, yozma badiiy, tarixiy asarlarda ketma-ket, ya’ni yonma-yon so‘zlarning sa’jlanishi ham ko‘p uchraydi”[5], – deb yozadi filologiya fanlari doktori Bahodir Sarimsoqov.

Alisher Navoiy Abu Abdulloh Antokiyni qaysi shayxning muridi ekanligi, qaysi shayxlar bilan zamondosh ekanligi, qaysi shayxlarning suhbatiga yetganligini aniq va tiniq qilib, nomma-nom yozadilar: “Bishr Hofiy va Sariy Saqatiy aqronidin ermish va Horis Muhosibiyning muridi va Fuzayl Ayoz suhbatig‘a yetibdur” (68). Tarkibi ohangdosh va o‘zaro qofiyadosh bo‘lgan har xil so‘zlarni yonma-yon qo‘llash san’atini mumtoz she’rshunos olim Atoulloh Husayniy tazmini muzdavaj san’ati deb ataydi. Mazkur san’at she’riy misralarda hamda mumtoz nasr naumalarida unli yoki undosh tovushlarni yonma-yon yoki o‘zaro yaqin tartibda keltirish bilan bayt va jumlalar talaffuzini kuchaytirish, musiqiylikni oshirishni nazarda tutadi. “Nasoyim ul-muhabbat”dan ko‘chirilgan iqtibosning avvalida tazmini muzdavaj san’atining go‘zal namunasi yaratilgan: Hofiy – Sariy Saqatiy. 1968-yilgi nashrda mashoyixlar nomining noto‘g‘ri yozilish oqibatida tazmini muzdavaj san’ati yorqin nazarga tashlanmay qolgan.

Xulosa. “Nasoyim ul-muhabbat” ilmiy asar bo‘lsa-da, unda badiiy-tasviriy vositalardan o‘rni-o‘rnida mahurat bilan foydalanilgan. Nashr paytidagi nuqsonlar so‘fiy shayxlar haqidagi tazkiraning badiiy mahoratiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. U yoki bu mumtoz asar namunasi matni ustida tadqiqot ishlari olib borilar ekan, uning badiiy va ilmiy shakli, tili hamda poetik uslubi nazardan qochirilmasligi zarur.

[5] Sarimsoqov B. o’zbek adabiyotida sa’j. – Toshkent: Fan, 1978. – B.15.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Asarlar. O‘n besh tomlik. O’n beshinchi tom. – Toshkent: badiiy adabiyot, 1968.
2. Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 17-jild. Toshkent: Fan, 2001.
3. Sarimsoqov B. o’zbek adabiyotida sa’j. – Toshkent: Fan, 1978.
4. Ahmed Ayni Konuk. Fususu’l-Hikam Tercume Ve Serhi Iv. Hazirlayanlar Dr. Mustafa Tahrali, Dr. Selcuk Eragdin. Istanbul, 1992.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.